

boshqaruv) mas'uliyati tamoyillariga yo'naltirilgan biznes modelini qurish vazifasini qo'yimoqda.

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan Tijorat banklari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy va Yer kodekslari, "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi nizom, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy siyosat sohasidagi xalqaro moliya institutlarining tavsiyalariga muvofiq ekologik va ijtimoiy risklarni baholash uchun tegishli majburiy talablarni qamrab olgan siyosatni ishlab chiqishi hamda amaliyotga joriy etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Banklarning yashil iqtisodiy rivojlanishdagi roli barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlariga erishishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy resurslarni to'g'ri yo'naltirish va barqarorlik tamoyillariga asoslangan qarorlar qabul qilish yashil iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023-yil.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-sonli Farmoni*
3. www.cbu.uz
4. www.lex.uz
5. <https://unece.org/green-economy-3> - *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi rasmiy veb sayti.*

QISHLOQ XO'JALIGINI INNOVASION TEXNOLOGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Suyunov Safarmurod

*Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich
magistratura tinglovchisi*

Jahonda ekologik muammolarni keskinlashuvi, iqlim o'zgarishlarning tobora kuchayib borishi, tuproqning sho'rlanishi, cho'llanishi, atmosfera havosining ifloslanishi, bioxilma-xillik, tabiiy resurslar zahirasining keskin kamayib borishining oldini olish borasida qator chora-tadbirlar qo'llash bugunning birlamchi vazifasiga aylanmog'i lozim.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra "cho'llanish natijasida har yili dunyoda 6 mln. gektardan ortiq sug'oriladigan yerlar ishdan chiqmoqda. Buning oqibatida oxirgi 20 yil ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlari 520 mlrd. AQSh dollari miqdorida kam yetishtirilmoqda". Qishloq xo'jaligida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini to'xtovsiz oshirib borishda tabiiy resurslardan oqilona

foydalanish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Jahon iqtisodiyotining tobora globallasuvi hamda global iqlim o'zgarishlari ta'sirida dunyo aholisini oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'z nutqida sayyoramizda keskin ekologik vaziyat kuzatilayotganligini, sayyorada uchta inqiroz - iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikni yo'qolishi va atrof-muhitni ifloslanishini kuchayib borayotganligini urg'ulab, ana shunday murakkab sharoitda Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanib borayotganini afsus bilan ta'kidladi. Jumladan "keyingi 30 yilda mintaqada havo harorati bir yarim gradusga ko'tarilgan. Bu – dunyodagi o'rtacha isishdan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolishi, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik Daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda" [1].

Mazkur muammolar, qishloq xo'jaligiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish, innovatsion texnologiyalar bo'yicha axborotlar bilan ta'minlash, konsalting xizmatlari hamda o'qitish tizimini kengroq shakllantirish asosida ekologik muammolarni agrar soha iqtisodiyotiga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 31 oktyabrdagi PF-5863 son "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yildagi PQ-820-sonli "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 17 apreldagi PQ-4291 son "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 sentyabrdagi 541-son "atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2021 yil 12 apreldagi 202-son "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish innovatsion texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, butun dunyoda raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida respublikamiz qishloq xo'jalik sohasiga ham uning bir qator elementlari kirib kelmoqda. Ayniqsa, "aqlli qishloq xo'jaligi"ni har tomonlama joriy qilishga alohida e'tibor berilishi natijasida sug'orish tizimida, issiqxonalarda, hosil yig'ib olishda va boshqa agrotexnik jarayonlarni raqamli texnologiyalar yordamida bajarilishiga yordam beruvchi texnika va

jihozlarni joriy qilish uchun fermerlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi keng yo'lga qo'yilgan[2]. Shularni hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni kelib chiqish sohasiga ko'ra 5 ta guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir, bular: selektsion-genetik, texnik-texnologik, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy va IT (Information Technology) texnologiyaga asoslangan innovatsiyalarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida, avvalo, an'anaviy texnologiyalarga nisbatan qo'shimcha mahsulot olinishi, mehnat unumdorligi ortishi va sof daromadni ko'payishi asosiy shartlardan biri bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishda davlat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi[3].

Shu bois, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish bo'yicha quyidagi xorijiy tajribalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'llash maqsadga muvofiqdir:

- ❖ qishloq xo'jaligida innovatsion yangiliklarni joriy qilishda davlat tomonidan ajratiladigan mablag'larga mutanosib ravishda nobyudjet fondlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlash;

- ❖ venchur fondlarini tashkil etish orqali innovatsion g'oyalar va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion faoliyat tizimida yangi shakldagi infratuzilma yaratish;

- ❖ davlat kafolati ostida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalariga foizsiz yoki kam foizli imtiyozli kreditlarni ajratish;

- ❖ raqamli texnologiyalar, "aqlli qishloq xo'jaligi" elementlaridan keng foydalanilishi, shuningdek, innovatsion jarayonlarda xususiy sektor sub'ektlar ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish [4];

- ❖ innovatsion texnologiyalarni joriy qilayotgan fermerlarga hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalariga 50 foizgacha soliq imtiyozlarini taqdim etish [5];

- ❖ qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun innovatsion yangiliklarni joriy qilish bo'yicha maqsadli grant shaklidagi 75 foizgacha xarajatlarni qoplash imkonini beruvchi moliyaviy ko'maklarni ajratish [6];

Qishloq xo'jaligida resurs tejankor texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish oqibatida tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan maydonlar hajmi va uni jami paxta maydonidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2022 yilda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan maydon 52,9 ming gektarni tashkil etib, jami paxta maydonidagi ulushi 2018 yilga nisbatan 5,1%ga oshgan. Shundan klasterlarga birlashtirilgan paxta maydonining 3,5% tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan.

Fermer xo'jaliklarida esa bu ko'rsatkich klasterlarga nisbatan birmuncha yuqori bo'lib, 2019 yilda fermerlar ixtiyorida 983 ming gektar paxta maydonining 7 ming gektarida yoki 0,7% maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan. 2022

yilga kelib esa, fermerlarning 856,2 ming gektar paxta maydonidan 46,8 ming gektar yoki 5,5% maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan[7].

Ma'lumki, suv resurslaridan oqilona foydalanishda lazer tekislash texnologiyasini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida lazer tekislash texnologiyasini qo'llash ko'lamlari ham yillar davomida kengayib bormoqda. Jumladan, 2021 yilda 12,1 ming gektar yoki 1,1% maydon lazer tekislangan bo'lsa, 2022 yilga kelib 112,2 ming gektar yoki 10,9 maydonda lazer tekislash ishlari amalga oshirilgan[8].

Ma'lumki, fan va texnika yangiliklarining asosiy iste'molchisi bo'lgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini innovatsion texnologiyalarga bo'lgan talab va istaklarini o'rganish, kelgusida chora-tadbirlar ishlab chiqishda qaysi muammolarni hal qilish lozimligini aniqlab olishga imkoniyat beradi.

Qishloq xo'jaligida ilmiy yangiliklar, resurs tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish tizimini yaxshilash bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

➤ yangi texnika va texnologiyalar joriy etgan fermerlarga ularni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlarini berish, unga sarflangan mablag'ning kamida 50 foizini subsidiyalash mexanizmini joriy etish;

➤ joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalarni ham sug'urta kompaniyalari tomonidan imtiyozli ravishda sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish;

➤ innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha maqsadli past foizli va uzoq muddatli imtiyozli kreditlarni berish amaliyotini joriy etish;

➤ innovatsion texnologiyalarni joriy etishda mahalliy hokimiyat vakillari, tuman qishloq xo'jaligi bo'limlarining aralashuvini cheklab, fermerlarning o'z ixtiyoriga berish;

➤ xorijda va respublikada yaratilgan eng yaxshi texnologiyalar, yangiliklar bo'yicha muntazam ravishda faoliyat yuritadigan seminar-treninglar tashkil etish. Ilg'or fermerlar er maydonida "fermerlarning dala maktablarini" tez-tez tashkil etish, boshqa viloyatlardagi fermerlar bilan tajriba almashish bo'yicha ko'rgazmali uchrashuvlar tashkil etish;

➤ ilmiy yangiliklar, resurs tejoychi innovatsion texnologiyalar, yangi navlar, kasalliklarga, sovuqqa chidamli, hosildorligi yuqori ko'chatlar, zotdor chorva hayvonlari va boshqa zarur axborotlar bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratishga alohida e'tibor berishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni, 2021 yil, 680-son. www.lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1.04.2021 yildagi "Tomrqa xo'jaligi to'g'risida"gi Qonun O'RQ-681-son. www.lex.uz

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2023 yil 19 sentyabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78 sessiyasi nutqi. www.lex.uz

5. Xakimov Z.I. Qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. "Aholi bandligini va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikning o'rnini mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. T: "Moliya", TMI, 2023-y. 112-114- betlar.

6. *Xakimov Z.I. Xorijiy davlatlarda tomorqa yer egalari xarajatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va tamoyillari. Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari to'plami, 2-qism, Toshkent, TMI, 2022 yil 27may, 26-30- betlar.*

7. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

8. www.agro.uz – O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy sayti.

PRIORITIZING POPULATION WELL-BEING: AN EXPLORATION OF ELEVATED FINANCIAL LITERACY

Mansurova Navruza
Master student of BFA

In contemporary society, the concept of population well-being has garnered increasing attention from policymakers, researchers, and practitioners alike. As societies grapple with complex economic challenges and social disparities, there is a growing recognition of the importance of fostering the holistic well-being of populations. Within this broader context, financial literacy has emerged as a critical determinant of individual and societal well-being. The ability to understand and effectively manage personal finances is essential for achieving financial security, reducing economic vulnerability, and enhancing overall quality of life. Therefore, prioritizing population well-being through the promotion of elevated financial literacy has become a key focus for governments, organizations, and educational institutions worldwide.

Financial literacy serves as the foundation for informed decision-making and economic empowerment. In this section, we explore the definition and importance of financial literacy, examine theoretical perspectives on its relationship with well-being, and identify key dimensions that encompass its scope.

Definition and Importance of Financial Literacy

Financial literacy can be defined as the knowledge, skills, and behaviors necessary to make informed financial decisions that contribute to individual and household well-being. It encompasses a range of competencies, including understanding financial concepts (e.g., interest rates, inflation), budgeting and money management skills, knowledge of financial products and services, and the ability to evaluate risks and rewards associated with financial decisions.

The importance of financial literacy cannot be overstated, as it plays a fundamental role in shaping individuals' financial well-being and overall quality of life. Research has consistently shown that individuals with higher levels of financial literacy are more likely to engage in responsible financial behaviors, such as saving for the future, managing debt effectively, and planning for retirement.